

**“AL-JIBAL WAL-AMKINA WAL-MIYAH” BY MAHMUD AL-ZAMAKHSHARI: ITS  
ROLE IN LANGUAGE, TOPONYMY, AND CULTURAL HERITAGE****Shahnoza A. Muhamedbabayeva**

Teacher

Department of “Oriental Philology”

Yangi Asr University

[asqarovnashahinaz@gmail.com](mailto:asqarovnashahinaz@gmail.com)

Tashkent, Uzbekistan

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Mahmud al-Zamakhshari, Al-Jibal wal-Amkina wal-Miyah, manuscript, Latin-Arabic edition, linguistics, toponymy, lexicography.

**Received:** 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

**Abstract:** This article is dedicated to the work titled “Al-Jibal wal-Amkina wal-Miyah” – “Mountains, Places, and Waters” by the great scholar, eminent linguist, mufassir, and polymath Mahmud ibn Umar al-Zamakhshari. It discusses the history of the work's creation, its earliest manuscript copies, as well as its Latin-Arabic scholarly editions and the versions studied and published by Arab scholars. The article highlights the role of the work in the fields of linguistics, culture, toponymy, and lexicography, demonstrating its significance as an invaluable source in Arabic toponymy.

**MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-JIBAL VAL- AMKINA VAL- MIYAH”  
ASARI: TIL, TOPONIMIYA VA MADANIY ME’ROSDAGI O’RNI****Shahnoza A. Muhamedbabayeva**

O‘qituvchi

“Sharq filologiyasi” kafedrası

Yangi asr universiteti

[asqarovnashahinaz@gmail.com](mailto:asqarovnashahinaz@gmail.com)

Toshkent, O‘zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so‘zlar:** Mahmud az-Zamaxshariy, Al-Jibal val-Amkina val-Miyāh, qo‘lyozma, lotincha-arabcha nashr, sharqshunoslik, tilshunoslik, toponimiya, leksikografiya, madaniy me’ros.

**Annatsiya:** Mazkur maqola buyuk alloma, yirik tilshunos, mufassir va qomusiy olim Mahmud ibn Umar Zamaxshariyning “Al-Jibal val-Amkina val-Miyāh” nomli asariga bag‘ishlanadi. Unda asarning yozilish tarixi, ilk qo‘lyozma nusxalari, shuningdek,

uning lotincha-arabcha ilmiy nashri va arab olimlari tomonidan o'rganilgan va nashrga chiqarilgan asarning nusxalar haqida so'z yuritiladi. Maqolada asarning tilshunoslik, madaniyat, toponimiya leksikografiya sohalaridagi o'rni yoritilib, uning arab toponimiyasida bebaho manba sifatidagi ahamiyati ko'rsatiladi.

---

## ПРОИЗВЕДЕНИЕ МАХМУДА АЗ-ЗАМАХШАРИ «АЛ-ДЖИБАЛ ВА-ЛЬ-АМКИНА ВА-ЛЬ-МИЙАХ»: ЕГО РОЛЬ В ЯЗЫКЕ, ТОПОНИМИКЕ И КУЛЬТУРНОМ НАСЛЕДИИ

*Шахноза А. Мухамедбаева*

*Преподаватель*

*Кафедра «Восточная филология»*

*Университет «Янги аср»*

*[asqarovnashahinaz@gmail.com](mailto:asqarovnashahinaz@gmail.com)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Махмуд аз-Замахшари, Ал-Джибал ва-ль-амкина ва-ль-мийах, рукопись, латино-арабское издание, востоковедение, лингвистика, топонимика, лексикография, культурное наследие.

**Аннотация:** Данная статья посвящена труду великого мыслителя, выдающегося лингвиста, муфассира и ученого-энциклопедиста Махмуда ибн Умара аз-Замахшари под названием «Ал-Джибал ва-ль-амкина ва-ль-мийах» («Горы, места и воды»). В работе рассматриваются история написания произведения, его первые рукописные списки, а также латино-арабское научное издание и экземпляры, изученные и опубликованные арабскими учеными. В статье освещается роль данного труда в области лингвистики, культуры, топонимики и лексикографии, а также раскрывается его значение как бесценного источника по арабской топонимии.

---

**Kirish.** Buyuk alloma “Ustazul-arab val-ajam”, “Faxri Xorazm”, “Jorulloh” unvonlarining sohibi Mahmud az-Zamaxshariy o'z davrining yirik tarixshunosi, adabiyotshunosi, tilshunosi, pedagogi, va shoiri hisoblanadi. Uning qalamiga mansub mantiq, grammatika, din, lug'at, adabiyot, adabiyotshunoslik, pedagogika, tarix va jo'g'rofiyaga oid 50 dan ziyod asarlar mavjud. Imom az-Zamaxshariy O'rta Osiyoda yetishib chiqqan eng yirik allomalardan biri sanaladi. U bilimlarini kitoblari va o'quvchilari orqali tarqatgan. Uning ko'plab asarlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. (<https://arboblar.uz/uz>)

Az-Zamaxshariyning ko‘plab asarlari arab tili va grammatikasiga bag‘ishlangan, ammo u faqatgina til va adabiyot bilan cheklanmadi, balki o‘zining joy nomlari( toponimiya)ga oid “Kitab Al-Jibal val - Amkina val-Miyah” كتاب الجبال والأمكنة والمياه- “Tog‘lar, joylar va suvlar” kitobi arab dunyosidagi geografik joylashuvlar haqida qimmatli ma‘lumotlar beruvchi, toponimiya va tilni o‘zida mujassam etgan adabiy asarini ham yozib qoldirdi. Asarning qachon yozilgan sanasi aniq ko‘rsatilmagan, ba‘zi manbalarda asar uning hayotining oxirgi yillarida, ya‘ni XII asrning birinchi yarmida yozilgani aytiladi. Bu ma'lumotlar, asosan, ilmiy tadqiqotlar va qo'lyozmalardagi yozuvlarga asoslanadi, ammo az-Zamaxshariyning o'zi asarida bu haqda aniq sana keltirmagan. Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-Jibal val-Amkinah val-Miyah” (Tog‘lar, joylar va suvlar) asari toponimiyaga oid muhim kitoblardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-Jibal va-l-Amkina va-l-Miyah” (Tog‘lar, joylar va suvlar) asaridagi geografik kitobi Arabiston yarim orolining tog‘lari, joylari, tekisliklari, vodiylari va suvlarini tushunish uchun juda foydali kitobdir. Kitobda tog‘lar, vodiylar va suv bilan bog‘liq mavzular yoritilgan bo‘lib, u geografiya, til va madaniyat, sohasidagi tadqiqotchilar uchun muhim ma‘lumotnoma hisoblangan. “Uning “Al-Amkina val-Miyah val-Jibal” nomli kitobi mashhur bo‘lib, u taxminan uch mingga yaqin joy nomini o‘z ichiga olgan. Bu joylar haqida yozilgan manbalarning aksariyati hozirgi kunda yo‘qolib ketgan. Az-Zamaxshariy joylarning ta‘riflaridan tashqari, ularni tilga olgan va ularni aniqlab kelgan ko‘plab she‘rlarni ham kiritgan. Muallif o‘z kitobini alifbo tartibida tuzgan. Avvaliga “Alif” harfi bilan boshlanadigan joylardan boshlab, keyin “Ba” harfi bilan boshlanadigan joy nomlarini bergan. (<https://www.albayan.ae/paths/books/2008-11-01-1.68811>)

Darhaqiqat, bu kitob bizda mavjud bo‘lgan eng muhim kitoblardan biri bo‘lib, bu asar o‘z ichiga bir necha bilimlarni oladi va ularga e‘tibor qaratadi, ya‘ni qadimda va ba‘zilar hozirda mavjud bo‘lgan joy nomlarini bilishni istagan tadqiqotchilar uchun zarur bo‘lgan asoslardan biridir; Shuningdek, bu yerlarning tabiatini bilishni istaganlar uchun ham, chunki unda mamlakat geografiyasi, uning joylari, suvlari va tog‘lari haqidagi xabarlar mavjud terminlarni lug‘aviy tahlil qilish bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi. Bu tadqiqot nafaqat toponimiya sohasida, balki tarix, til va madaniyatshunoslik sohalariga ham sezilarli hissa qo‘shadi. Bu asarni ko‘plab arab va arab bo‘lmagan tadqiqotchilar o‘rganishgan

“Al-Jibal val-Amkina val-Miyah” (Tog‘lar, joylar va suvlar) az-Zamaxshariy qalamiga mansub mashhur kitobdir. U birinchi marta 1857-yilda Salverda de Grave tomonidan, keyin esa 1968-yilda Najafda birinchi nashrga qo‘shimchalar kiritilgan boshqa qo‘lyozma asosida chop etilgan. Shundan so‘ng, 1968-yilda doktor Ibrohim as-Samarroiy tomonidan, avvalgi ikkita nashrga kiritilmagan qo‘shimchalar bilan nashr etilgan. Bu kitob Nasr al-Iskandariy (vaf. 561-hijriy) ning 1990-yilda Fuad Sezgin tomonidan nashr etilgan va “Al-Amkina val-Miyah val-Jibal”

deb nomlangan kitobi bilan bir xil emas. Al-Iskandariy kitobi 2938 ta tarjimani o'z ichiga olgan bo'lib, ulardan 2317 tasi uning "Al-Mu'talif val-Muxtalif" kitobiga tegishli mavzularni o'z ichiga oladi (Majallat al-Arab.)

Ushbu asar Zamaxshariyning ilmiy merosidagi unikal joyni egallaydi, chunki u odatda diniy va tilshunoslik sohalaridagi asarlari bilan tanilgan.

Asar az-Zamaxshariy Makkada yashagan paytida, amir Abul Hasan Ali ibn Hamza ibn Vahhos as-Sulaymoniyning ma'lumotlari hamda o'zining shaxsiy kuzatishlari asosida yozilgan. Kitobda Hijoz (hozirgi Saudiya Arabistoni) dagi geografik joylar, tog'lar, daryolar va quduqlar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Asar G'arb olimlari orasida ham katta qiziqish uyg'otgan. Xususan asar 1855-yilda gollandiyalik sharqshunos olim Juyboll (1808-1865) ning shogirdi Salverda de Grave tomonidan mukammal tadqiq qilinib, nashr etilgan. (Al-Zamakhshari, 1856, p. 292.)

Bu esa asarning o'sha davr ilm-fanida naqadar muhim o'rin tutganidan dalolat beradi. "Al-Jibal val-Amkina val-Miyah" asari az-Zamaxshariyning geografiya va tabiiy fanlarga oid bilimlarini, kuzatuvchanligini hamda ma'lumotlarni tartiblashdagi mahoratini namoyish etadi.

**Natijalar.** Til geografiyani ifodalash vositasi sifatida az-Zamaxshariy bu asarda quyidagi vositalar orqali til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bergan:

Toponimik tahlil (joy nomlarini izohlash) az-Zamaxshariy mazkur asarda joy nomlarini etimologik jihatdan tahlil qiladi. Ko'pgina toponimlarning kelib chiqishi, ma'nosi va madaniy konnotatsiyasi izohlanadi. Masalan, "Makka", "Madina", "Toif" kabi joy nomlarining arab tilidagi ildizlariga asoslanib, ularning diniy va tarixiy mazmuni yoritiladi

الطائف – بلد ثقيف يسمى به الحايط الذي بني حوله في الجاهلية حصنوه به

(Al-Zamakhshari, 1856, pp.105-106)

"Toif - Saqif qabilasining yurti bo'lib johiliyat davrida u bilan himoyalangan devorning nomidir."

Lug'aviy boyluk va dialektlar Joy nomlari orqali turli arab lahjalari (lahnlari) va ularning farqlari ko'rsatiladi. Bu esa arab dunyosida lingvistik xilma-xillik va madaniy mintaqaviylikni ochib beradi. Ushbu kitobda tildan geografik joylashuvlarni aniq tasvirlash uchun qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Az-Zamaxshariy joylashuvni aniqlashda aniq so'z va geografik atamalarga tayanadi, bu uning arab tilini chuqur bilishi va uning aniq tafsilotlarni ifodalash qobiliyatini aks ettiradi. U geografik nomlardan foydalanish orqali til nafaqat muloqot vositasi, balki atrofimizdagi dunyoni tanish, idrok etish quroli ham hisoblanishini o'z asari orqali ifodalab berdi.

Til va madaniyatga ta'siri. Kitobda til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarga ham to'xtalib o'tilgan, chunki kitobda qo'llanilgan nom va atamalar arab jamiyatlarining madaniy

qadriyatlarini va an'analarini aks ettiradi. Geografik nomlarni o'rganish orqali tadqiqotchilar madaniyat tilga qanday ta'sir qilishini va til madaniyatni qanday aks ettirishini tushunishlari mumkin. Masalan, tog'larga berilgan nomlar vodiylar o'sha joylar bilan bog'liq voqealar yoki afsonalarni aks ettiruvchi tarixiy yoki madaniy ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. "Al-Jibal val-Amkina val-Miyah" asari asosan geografik atamalar, joy nomlari, daryo va quduqlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu esa arab tilining geografik lug'at boyligini oshirishga xizmat qilgan. Asarda keltirilgan joy nomlari va ularning tavsiflari o'sha hududdagi madaniy va ijtimoiy hayot haqida ham ma'lumot beradi. Az-Zamaxshariy arab tilining yuqori darajada egallagan bo'lib, u ushbu asarida turli joy nomlari va ularni tavsiflash uchun nodir va aniq so'zlarni ishlatgan. Bu o'z navbatida arab tilidagi so'z va iboralarning ma'nosini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Asarning madaniyatga ta'siri to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita bo'lgan. U hijozdagi (hozirgi Saudiya Arabistoni) yerlar, tog'lar, suv manbalari haqida batafsil ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar o'sha hududda yashagan xalqning turmush tarzi, joylashish sabablari va iqtisodiy faoliyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Asar, shuningdek, o'sha davrda ilm-fanning naqadar keng rivojlanganini va geografiya hamda boshqa tabiiy fanlarga qiziqish yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Bu, o'sha davrning ilmiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi.

Kitobning tilshunoslikdagi ahamiyati. "Tog'lar, joylar va suvlar" tilshunoslik tadqiqotlari uchun boy manba bo'lib, arab tilining rivojlanishi va uning geografik sharoitlarda qo'llanishini tushunish uchun ma'lumotnoma sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, kitobda tilning geografik bilimlarni hujjatlashtirish vositasi bo'lib xizmat qilishi, ilmiy tadqiqotlarda tilning ahamiyatini oshirish ham ko'rsatilgan. Az-Zamaxshariy joylarning ta'rifidan tashqari joylarni eslatib o'tadigan va aniqlaydigan ko'plab she'rlar yozgan. (<https://www.albayan.ae/paths/books/>)

Asarning ko'pginana o'rinlarida qasidalardan misollar keltirib o'zi keltirgan joy nomlarining manbalarini keltirib o'tadi. Az-Zamaxshariy qadimiy shoirlar, jumladan, Muxadramun- (Jahiliyat va Islom davrida yashagan shoirlar) va Islom davri shoirlarining she'rlaridan foydalangan. U bu bilan cheklanib qolmay, Abu Navos va Ibn Haniy kabi Abbosiy shoirlaridan ham foydalangan. Ayniqsa, Ibn Muqbilning she'rlaridan kitobida ellikdan ortiq joyda foydalangan. (Al-Zamakhshari, 1999, p. 10.)

Tarixiy geografiya va toponimika rivoji uchun bebaho manba Bu asar o'rta asrlar geografiyasi uchun qimmatli manba bo'lib, unda musulmon olami va uning atrofidagi joylar, tog'lar, daryolar va suv havzalari haqida juda ko'p ma'lumotlar to'plangan. Az-Zamaxshariy uzoq safarlarda bo'lgan va ko'rgan-bilganlarini ushbu asarga jamlagan. Bu ma'lumotlar o'sha davrning geografik bilimlari darajasini ko'rsatadi va keyingi avlod olimlari uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Az-Zamaxshariy asarida keltirilgan geografik nomlar (toponimlar) O'rta asrlardagi islom olami,

xususan, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaning tarixiy geografiyasini o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Bu nomlarning lug'aviy tahlili orqali qadimiy joylarning aniq o'rnini belgilash, ularning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarganini kuzatish va mintaqaning tarixiy rivojlanish jarayonini chuqurroq tushunish mumkin. Bu esa zamonaviy tarixiy geografiya va toponimika fanlari uchun yangi ilmiy ma'lumotlar ochib beradi. Nomlarning etimologik ildizlarini ochish orqali qadimiy migratsiya yo'nalishlari, savdo yo'llari va aholi punktlarining joylashuvi haqida ham qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz

Tilshunoslik va leksikografiya (lug'atshunoslik) uchun fundamental asos. Az-Zamaxshariy arab tilining buyuk biluvchisi va mujaddidi hisoblanadi. Uning ushbu asaridagi terminlarning etimologik, semantik va morfologik tahlili o'rta asr arab tilining leksik boyligini, uning fonetik va grammatik xususiyatlarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, asardagi lug'aviy ma'lumotlar arab tilining tarixiy taraqqiyotini kuzatish, dialektal farqlarni aniqlash va qadimiy so'z boyligini saqlab qolish uchun muhimdir. Bu tadqiqotlar tilshunoslik sohasida yangi nazariy va amaliy bilimlarni ochib beradi va leksikografiya fani rivojiga katta hissa qo'shadi. Ayniqsa, arab tiliga boshqa tillardan, masalan, forsiy, turkiy yoki suryoniy tillaridan o'zlashgan joy nomlarini tahlil qilish, lingvistik o'zaro ta'sirlarni tushunishga yordam beradi. Til boyligini tahlil qilish: Asarda keltirilgan joy nomlari, tog'lar, daryolar va boshqa geografik ob'yektlar nomi arab tilining so'z boyligini tahlil qilish imkonini beradi. Az-Zamaxshariy bu nomlarning ma'nolari, kelib chiqishi va ishlatilish kontekstini tushuntirib bergan. Bu esa so'zlarning etimologiyasi (kelib chiqishi) va semantikasi (ma'nosi)ni o'rganishda muhimdir.

: أجا – أحد جبلي طيء وهي مؤنثة، قال

أبت أجا أن تسلم العام جارها

(Al-Zamakhshari, 1999, p. 34.) فمن شاء فلينهض من مقاتل

“Aja” – Toy (qabilasi) yashaydigan joydagi ikki ulkan tog'dan biri va u muannasdir”

O'z so'zini quvvatlash uchun Imrul Qaysning yuqoridagi baytini keltiradi. Az-Zamaxshariy shu so'zning sharhida bu ikki tog'ni ko'rganligini ham aytib o'tadi.

So'zlarning tarixiy rivojlanishini kuzatish: Asarda keltirilgan ma'lumotlar so'zlarning va joy nomlarining o'rta asrlarda qanday ishlatilganini ko'rsatadi. Bu esa tilshunoslarga so'zlarning va joy nomlarining tarixiy rivojlanishini, ularning ma'nosi qanday o'zgarganini kuzatish imkonini beradi. “Eram – qadimda yashagan A'ad qavmining -، وقيل: الإسكندرية، وقيل: دمشق، إرم – بلد عاد -deb, bular (hozirda va Zamaxshariy davrida) Iskandariya yoki Damashq yerlaridir – deyilgan” (Al-Zamakhshari, 1999, p.35.)

Lug'at tuzish uslubi: Az-Zamaxshariyning bu asari, “Asas al-Balog'a” va “Muqaddimat al-Adab” kabi boshqa lug'atshunoslikka oid asarlari bilan birgalikda o'rta asrlar lug'atchiligining yuksak darajasini ko'rsatadi. Bu asar ham joy nomlari va geografik atamalarni tizimlashtirishga

urinish sifatida leksikografiyaning amaliy namunasidir, chunki asardagi ko'pgina joy nomlari joy nomlarini qadimda nega bunday atalgani sharhlab berilgan.

Turli ilmlarni bog'lash: Asar lug'atshunoslikni geografiya, tarix va boshqa fanlar bilan bog'laydi. U bitta so'z yoki nomning turli fanlar kesimida qanday ahamiyatga egaligini ko'rsatib beradi. Bu esa fanlararo tadqiqotlar uchun asos yaratgan.

Madaniy va sivilizatsion aloqalar tahlili uchun muhim ko'prik. Geografik nomlar ko'pincha mintaqalar o'rtasidagi madaniy almashinuvlar, migratsiyalar, savdo aloqalari va tarixiy hodisalar haqida jim guvohlik beradi. Asardagi terminlarni tahlil qilish orqali turli xalqlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi madaniy o'zaro ta'sirlarni, til va madaniyatning bir-biriga qanday singishini anglash mumkin. Misol uchun, bir nomning turli xalqlarning tillarida o'xshash yoki farqli ma'nolar kasb etishi ularning tarixiy aloqalari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari haqida ma'lumot beradi. Bu esa madaniyatlararo muloqot va tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qadimiy atamalarni saqlab qolish va ularning ma'nosini tushunish uchun. Ko'plab qadimiy geografik nomlar va terminlar bugungi kunda yo'qolib ketgan yoki ularning asl ma'nosi unutilgan bo'lishi mumkin. Az-Zamaxshariy asarini tahlil qilish orqali ushbu qadimiy atamalarni saqlab qolish, ularning asl ma'nosini tiklash va ilmiy muomalaga qaytarish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu, shuningdek, o'rta asrlarga oid boshqa tarixiy va adabiy matnlarni to'g'ri sharhlashda muhim ahamiyatga ega, chunki az-Zamaxshariy asari o'sha davrning ilmiy terminologiyasini ham aks ettiradi. Ushbu tadqiqotlar o'tmishning lingvistik "xaritasini" tiklashga yordam beradi.

O'zbekistonning boy ilmiy merosini targ'ib qilish uchun. Mahmud az-Zamaxshariy Xorazmdan chiqqan buyuk olimlardan biri bo'lib, uning asarlari O'zbekistonning boy ilmiy va ma'naviy merosining ajralmas qismidir. Ushbu asarni chuqur tadqiq qilish va uning ilmiy dolzarbligini ko'rsatish orqali mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini yana bir bor namoyish etish mumkin. Bu, shuningdek, yosh avlodni o'zining buyuk ajdodlari merosini o'rganishga va undan ilhom olishga undaydi. Shunday ekan Zamaxshariyning boshqa asarlari kabi bu salmoqli asarini o'rganmog'imiz va uning ko'p qirrali ijodini kelajak avlodlarga yetkazish biz tadqiqotchilarning burchidir.

**Xulosa.** Mahmud az-Zamaxshariyning "Al-Jibal val-Amkina val-Miyah" asari nafaqat arab tilshunosligi va toponimiyasi uchun, balki jahon madaniy merosi uchun ham yuksak qadriyatga ega. Asarning nashri va tadqiq etilishi orqali arab filologiyasining tarixiy taraqqiyotini chuqurroq anglash, shuningdek, toponimik merosni ilmiy jihatdan o'rganish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bois bu asar hozirgi davrda ham lingvistika, tarix va madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun dolzarb manba bo'lib qolmoqda. Az-Zamaxshariyning "Tog'lar, joylar va suvlar" asari geografiya va tilni o'zida mujassam etgan muhim asardir. Kitob til madaniyatni qanday aks ettirishi va atrofimizdagi dunyoni tushunishimizga yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu

kitobni o'rganish til va geografiya o'rtasidagi munosabatni tushunishimizni kuchaytiradi, bu sohada tadqiqot va o'rganish uchun yangi ufqlarni ochadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Al-Zamakhshari, M. (1856) The book of mountains, places, and waters. Kitab al-Jibal wa-al-Amkinah wa-al-Miyah (M. Salverda de Grave, Ed.). E. J. Brill – 280 p (in Arabic-Latin)
2. Al-Zamakhshari, M. (1999). Mountains, places, and waters. Al-Jibal wal-Amkina wal-Miyah. (A. A. T. Awad, ed.). Dar al-Fadilah – 384 p. (in Arabic)
3. Al-Zamakhshari, M. (n.d.). The book of mountains, places, and waters. Kitab al-jibal wal-Amkina wal-Miyah. (Al-Samarrai, ed.). – Bagdad. - 257 p. (in Arabic)
4. Majallat al-Arab. (n.d.). Scholarly records. Vol. 1, p. 309; Vol. 4, p. 376; Vol. 6, p. 673.
5. <https://www.albayan.ae/paths/books/2008-11-01-1.68811> Al-Bayan. (2008, November)
6. <https://arboblar.uz/uz> Arboblar.uz. (n.d.). Mahmud az-Zamaxshariy
7. <https://ar.m.wikipedia.org/wiki>